

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI» kafedrası

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

Kafedra mudiri, prof. Xolbekov R.O.

«____» _____ 2013 y.

**“TOVAR-MODDIY ZAZIRALARNI TAN OLISH VA ULARDAN
FOYDALANISH HISOBINI TASHKIL QILISHNING KONSEPTUAL
ASOSLARI” MAVZUSI BO'YICHA YOZILGAN
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

«Himoyaga tavsiya etiladi»
Ilmiy rahbar: dos. Maxkamboev A.T.

«____» _____ 2013 y.

Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va
audit» ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs
BR-51 guruh talabasi Mavlyanov
Ma'ruf Maxmudovich _____

«____» _____ 2013 yil

T O S H K E N T – 2013

MUNDARIJA

Kirish

I-BOB. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tovar-moddiy zaxiralarni tan olish va hisobining nazariy asoslari

1.1. Tovar-moddiy zaxiralarni turkumlash va baholash

1.2. Tovar-moddiy zaxiralarni tan olishning konseptual asoslari

1.3. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning nazariy asoslari

II-Bob. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish va hisobga olishning uslubiy asoslari

2.1. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlash usullari

2.2. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil qilish amaliyoti

2.3. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil qilishning uslubiy asoslarini takomillashtirish yo’nalishlar

III-Bob. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar auditini tashkil qilish

3.1. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralarni auditining axborot manbalari

3.2. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralarni auditi xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo’nalishlari

Xulosa va takliflar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotimiz tobora rivojlanib bormoqda hamda jahon mamlakatlari orasida o'zining o'rniga ega bo'lmoqda. Bu borada Prezidentimiz o'z ma'ruzalarining birida ta'kidlab o'tganliridek, "Bugungi kunda, dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat qarzining ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan bir sharoitda, O'zbekistonimiz chetdan qarz olish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat olib borishi natijasida davlatimiz qarz hajmining ulushini nisbatan past darajada ushlab qolishga va o'z majburiyatlariga to'liq javob beradigan mamlakat sifatida barqaror obro'-e'tiborini saqlab qolishga erishdi. 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning jami tashqi qarzlari miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,0 foizdan oshmagani, bu ko'rsatkich esa xalqaro mezonlar bo'yicha "o'rtachadan ham kam" darajada baholangani buni isbotlab bermoqda."¹

Bu narsa, ayniqsa faoliyat ko'rsatayotgan aksionerlik jamiyatlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda aksionerlik jamiyatlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini ko'paytirish hamda ishlab chiqarish zaxiralaridan samarali foydalanishni talab etadi. Albatta, ushbu masalalar ayniqsa, mol etkazib beruvchilardan sotib olingan ishlab chiqarish zaxiralari hisobi va auditini to'g'ri tashkil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki sotib olingan tovar-moddiy zaxiralari hisobi va auditining amaldagi tizimi boshqaruv talablariga to'la javob bermasligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun yuqorida bayon etilgan mavjud kamchiliklarni ijobiy hal etish mazkur mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi va bitiruv malakaviy ishning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Aksionerlik jamiyatlarida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun xar xil ishlab chiqarish zaxiralaridan foydalaniladi hamda ularning aksariyat qismini tovar-moddiy zaxiralari tashkil qiladi. Tovar-

¹ И.А.Каримов. Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. ("Халқ сўзи" газетаси, 2013 йил 19 январь, № 13 (5687))

moddiy zaxiralarning hisobi va ularning auditi bo'yicha ko'pchilik iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan T.P.Karpova, V.F.Paliy, YA.V.Sokolov, D.U.Urakov, CH.T.Xorngren, N.G.Chumachenko, R.Entoni, M.I.Kuter, N.P.Kondrakov, A.D.Sheremet kabi iqtisodchi olimlar tovar-moddiy zaxirlar hisobi va audit bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan O.B.Bobojonov, S.V. Vohidov, R.Do'stmurodov, M.Tulaxajeva, N.YU.Jo'raev, YU.M.Itkin, A.K.Ibragimov, A.X.Pardaev, M.Q.Pardaev, N.S.Sanaev, B.A.Xasanov, R.O. Xolbekovlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. Albatta, bu olimlarning ilmiy va uslubiy ishlari ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega.

Lekin ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida, risolalari, darslik va o'quv qo'llanmalarida bu masalalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralarining umumiy tasnifi, tavsifi, hisobi aks ettirilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi aksionerlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralaridan samarali foydalanish hisobini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- tovar-moddiy zaxiralarining iqtisodiy mazmuni, mohiyati va ularni turkumlash hamda baholashning nazariy asoslarini o'rganish;
- aksionerlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralarini tan olishning konseptual asoslarini asoslash;
- aksionerlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralari hisobining nazariy asoslarini o'rganish;
- tovar-moddiy zaxiralari hisobining uslubiy asoslarini o'rganish hamda ilmiy tavsiyalar berish;
- aksionerlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralari auditining hozirgi holatini o'rganish va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti bo’lib, “Qiziltepa un zavodi” ochiq aksionerlik jamiyatining buxgalteriya hisobi ma’lumotlari hamda tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish holati hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bo’lib, tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish va foydalanish bilan bog’liq hisob-kitoblar hisobi va auditini huquqiy-me’yoriy asoslari, shuningdek, uning uslublarini amaldagi qonunlar va me’yoriy hujjatlar doirasida takomillashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslari. O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, Qarorlari, ma’ruza va asarlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Moliya vazirligining hisob tizimi uslubiyatiga doir me’yoriy xujjatlari va yo’riqnomalari tashkil etadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida mavzuga oid xorijiy, respublikamiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, “Qiziltepa un zavodi” ochiq aksionerlik jamiyatining xo’jalik faoliyatini aks ettiruvchi hisobot ma’lumotlaridan foydalanildi.

Ishining ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- tovar-moddiy zaxiralarining iqtisodiy mazmuni, mohiyati va ularni turkumlash hamda baholashning nazariy asoslarini o’rganildi;
- “Qiziltepa un zavodi” ochiq aksionerlik jamiyatiida tovar-moddiy zaxiralarini tan olishning konseptual asoslari ilmiy asoslandi;
- “Qiziltepa un zavodi” ochiq aksionerlik jamiyatida tovar-moddiy zaxiralari hisobining nazariy asoslarini o’rganildi;
- “Qiziltepa un zavodi” ochiq aksionerlik jamiyatida tovar-moddiy zaxiralari hisobining uslubiy asoslarini o’rganildi va ilmiy tavsiyalar berildi;
- “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar auditining hozirgi holatini o’rganildi va uni takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida erishilgan ilmiy natijalardan Oliy ta’lim muassasalarida “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” fanini o’qitishda o’quv uslubiy qo’llanma sifatida

foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan amaliy tavsiyalardan “Qiziltepa un zavodi” ochiq aksionerlik jamiyatida buxgalteriya hisobi va auditini yuritishda uslubiy ko’rsatma sifatida foydalanish mumkin.

Ilmiy ishning tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, o’zaro bog’langan 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I-BOB. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tovar-moddiy zaxiralarni tan olish va hisobining nazariy asoslari

1.1. Tovar-moddiy zaxiralarni turkumlash va baholash

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyatini uzluksiz tashkil qilish uchun birinchi navbatda tovar-moddiy zaxiralarini doimiy ta'minlab turishni taqazo qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi mehnat predmetlari kiradi. Ulardan har bir ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladi va o'z qiymatini to'la ravishda yangi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tkazadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish va ularning harakatini nazarot qilish buxgalteriya hisobining 4-sonli milliy standartariga asosan² tartibga solinadi. Ushbu standartda "Tovar-moddiy zaxiralar"- bu xo'jalik yurituvchi sub'etlarning quyidagi shaklidagi aktivlaridan iboratdir: ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishlatilishi ko'zda tutilgan xom-ashyo va tovar-moddiy zaxiralar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i - ehtiyot qismlar, boshqa tovar-moddiy zaxiralar hamda arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar; tugallanmagan ishlab chiqarish; xo'jalik yurituvchi subektning oddiy faoliyatida sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot va tovarlardan tashkil topadi.

Tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga kirmaydigan tovarlarning yana bir toifasi bu - konsignasiyadagi tovarlardir. Konsignasiya - bu komitent yoki konsignant deb ataladigan mulkdorning o'z tovarlarini boshqa kompaniya omborlarida joylashtirishidir. Konsignator bunday tovarlarni o'zining moddiy zaxiralari tarkibiga kiritmasligi kerak, chunki sotish davrigacha bu tovarlar jo'natuvchi - konsignantning mulki hisoblanadi. Tovar-moddiy zaxiralar quyidagilardan eng kam qiymati bo'yicha baholanadi: tannarx bo'yicha va sof sotish qiymati bo'yicha.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarni uch turi amal qiladi (1-chizma).

² ЎзР АВ томонидан 486-сон билан рўйхатга олинган 4-сонли "Товар-моддий захиралар" БХМС .-Т.: 28.08.1998 й.



1-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarning turlari.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri tashkil qilishda ularni ilmiy asosda turkumlash muhim ahamiyatga ega. Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chikarish jarayonida bajaradigan roliga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi: xom-ashyo va asosiy tovar-moddiy zaxiralar; yordamchi tovar-moddiy zaxiralar, sotib olingan yarim fabrikatlar, chiqindilar, yoqilg'i, tara va tara tovar-moddiy zaxiralari, ehtiyot qismlari, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar. Ularni kengaytirilgan tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Materiallar;
- O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar;
- Materiallarni tayyorlash va xarid qilish;
- Materiallar qiymatidagi farqlar;
- Asosiy ishlab chiqarish;
- O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar;
- Yordamchi ishlab chiqarish;
- Umumishlab chiqarish;
- Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar;
- Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar;
- Tayyor mahsulotlar;
- Tovarlar.

Xom-ashyo va asosiy tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning moddiy asosini tashkil qiluvchi tovar-moddiy zaxiralardir. Xom-ashyolarga qishloq xo'jaligi va qazilma sanoatining mahsulotlari (don, paxta, sut,

go'sht, sabzavot mahsulotlari va boshqalar) kiradi. Yordamchi tovar-moddiy zaxiralar xom-ashyo va asosiy tovar-moddiy zaxiralarga qo'shimcha ravishda foydalaniladi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ma'lum darajada iste'mol xususiyatlarini beradi, shuningdek, mehnat vositalarini ta'mirlashda hamda ishlab chiqarish jarayonini engillashtirish uchun foydalaniladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni asosiy va yordam tovar-moddiy zaxiralarga bo'lish shartli xarakterga ega bo'lib bir tarmoqda asosiy hisoblangan tovar-moddiy zaxiralar boshqa tarmoqlar uchun yordamchi tovar-moddiy zaxira bo'lishi mumkin.

Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar - qayta ishlashning ma'lum bosqichini o'tgan, lekin tayyor mahsulot holatiga etmagan xom-ashyo va tovar-moddiy zaxiralardir. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ular ham asosiy tovar-moddiy zaxiralar rolini bajaradi va ularning moddiy asosini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishdan qaytarilgan chiqindilar - tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan xom-ashyo va tovar-moddiy zaxiralar, yarim fabrikatlar qayta ishlash jarayonidagi qoldiqlari.

YOqilg'ilarni uchga bo'lish mumkin - texnologik yoqilg'ilar, dvigatel va xo'jalik yoqilg'ilari. Texnologik yoqilg'ilar texnologik maqsadlar uchun foydalaniladi. Dvigatel yoqilg'ilari esa dvigatelni yurgizish uchun ishlatiladi. Xo'jalik yoqilg'ilari isitish uchun foydalaniladi.

Tara va tara tovar-moddiy zaxiralari (korobkalar, qoplar va boshqalar) tayyor mahsulotlar, yarim fabrikatlar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa narsalarni qadoqlash, transportirovka qilish va saqlash uchun foydalaniladi. Ehtiyot qismlar-mashina, asbob-uskuna va boshqa mehnat vositalarini ta'mirlash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari tovar-moddiy zaxiralar har bir turkumning ichida ham ma'lum belgilari va sifat ko'rsatkichlariga qarab guruhlanadi. Tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullari ikki turga bo'linadi va ular iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra turlicha talqin etilmoqda. Shu jumladan A.Sotivoldiev³ tovar-moddiy zaxiralarni baholashda quyidagi usullarni qo'llashni maqsadga muvofiqdir deb ta'kidlaydi:

³ А.Сотиволдиев ва бош. Замонавий бухгалтерия ҳисоби. –Т.: 2004 й. 117-бет.

- erkin bozor (shartnoma) yoki davlat tomonidan tartibga solinadigan (preyskurant) ulgurji baholar. Bu narx tovar jo'natish shartnomalarini tuzishda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan mustaqil belgilanadi va mol yuboruvchi hamda mol oluvchi bilan hisob-kitoblar olib borishda mol yuboruvchining to'lov hujjatlarida ko'rsatilib molning sotilish narxi shaklida foydalaniladi.

- nomenklatura hisob bahosi bo'yicha. Bu sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarning reja tannarxi, o'rtacha sotib olish narxlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Barcha hollarda ham baho asosida shartnoma yoki preyskurant baholari bo'lib, ustiga rejalashtirilgan transport-tayyorlov xarajatlarini qo'shib belgilaydi. Bu baholar mavjud tovar-moddiy zaxiralarni va ularning harakatini joriy va tezkor hisobga olishda qo'llaniladi.

Prof. A.Karimov⁴ moddiy qiymatliklar sintetik schetlarda ikki bahoda ko'rsatilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: haqiqiy sotib olish tannarxida yoki qat'iy hisob baxosida.

Moddiy qiymatliklarning haqiqiy tannaraxi quyidagilardan tashkil topadi: sotib olish xarajatlari; ta'minot tashkilotiga to'langan qo'shimchalar; bojxona to'lovlari; ortish, tashish, tushirish, saklash xarajatlari; xom-ashyo birjalarining xizmatlari qiymati va boshqalar.

Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy tannarxini hisoblash anchagina xisob-kitoblarni talab qiladi va buxgalteriya xodimlarining anchagina vaqtini oladi. shuning uchun ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda faqat asosiy xom-ashyo va tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi va qolgan tovar-moddiy zaxiralar ishlab chikarish jarayoniga berilayotganda qat'iy hisob baholarida beriladi.

Qat'iy hisob baholari uchun ushbu tovar-moddiy zaxiralarning reja tannarxi, o'rtacha sotib olish baholari va boshqalar asos qilib olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy tannarxining qat'iy hisob baholaridan farqi alohida 1610 "Tovar-moddiy zaxiralar qiymatining chetlanishi" sintetik schetida hisobga olib boriladi.

⁴ A.Каримов ва бош. Бухгалтерия ҳисоби. –Т.: Шарқ, 2004 йил.

Bizning fikrimizcha, ushbu iqtisodchi olimlarning fikri o'rinlidir, chunki xar bir xo'jalik yurituvchi sub'et tovar moddiy qiymatliklarini mustaqil baholashlari va ular belgilangan qonuniy hujjatlar talablariga mos kelishi, shuningdek, sub'ekt tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosatida o'z aksini topishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda, sub'ektlarning buxgalteriya hisobini samarali tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy tannarxini hisoblashni ancha engillashtirdi va qat'iy hisob baholarini qo'llashga ehtiyoj qoldirmaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'etlarda chetdan sotib oladigan tovar-moddiy zaxira qiymatliklarining haqiqiy bahosi quyidagilardan tashkil topishi ko'zda tutilgan⁵. Bularga, sotib olish narxi, import bo'yicha boj to'lovlari, mahsulotlarni sertifikatlash xarajatlari, ta'minot va vositachilik tashkilotlariga to'lanmalar, soliqlar, shuningdek, transport-tayyorlov xarajatlari, xizmat ko'rsatish xarajatlari va zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni kiritish mumkin.

Iqtisodchi olimlar tomonidan sub'ektlarda moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarish jarayoniga berishda quyidagi usullarda baholab hisobdan chiqarishni ta'kidlashgan: o'rtacha tannarxi bo'yicha; birinchi sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi bo'yicha (FIFO usullari); oxirgi sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi bo'yicha (LIFO usullari).

a) o'rtacha tortilgan qiymat usuli - TMZ har bir birligining qiymati hisobot davridagi boshida bir tipli TMZ birliklari va xisobot davri davomida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan bir tipli birliklarning o'rtacha tortilgan qiymat bo'yicha aniqlanadi. TMZ birligining o'rtacha tortilgan qiymati TMZning butun qiymatini shu zaxiralar birliklarining soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

b) birinchi xarid baholari bo'yicha baholash usuli (FIFO - birinchi kirim - birinchi chiqim) - birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotib yuborilgan tovarlarga olib borilishi kerak degan taxminga asoslangan.

⁵ ЎзР АВ томонидан 486-сон билан рўйхатга олинган 4-сонли "Товар-моддий захиралар" БХМС.-Т.: 28.08.1998 й. 9-банди.

v) oxirgi xarid narxlarini bo'yicha baholash usuli (LIFO - oxirgi kirim - birinchi chiqim) - oxirgi xarid qilingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlarning qiymatini aniqlash uchun, hisobot davrining oxiriga bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi esa birinchi navbatda xarid qilingan tovarlar tannarxi asosida hisob qilinadi, degan taxminga asoslangan.

Bugungi kunda amaliyotda o'rtacha tannarxi bo'yicha va FIFO usullari keng qo'llanilgan. Biroq, amaliyotga LIFO usulni qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki moliyaviy natijalarni aniqlashda ob'ektivlik tamoyili talablarining bajarilishiga sharoit yaratilgan bo'lar edi. Yuqoridagi ma'lumotlar bo'yicha xo'jaliklarda ishlab chiqarishga sarflangan moddiy qiymatliklarning FIFO va LIFO usullarida hisobdan chiqarilishi aks ettirilgan.

Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, baholashning bunday FIFO va LIFO usullarini qullaydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moddiy qiymatliklarning analitik hisobi har bir partiya bo'yicha yuritilishi maqsadga muvofiqdir.

1.2. Tovar-moddiy zaxiralarni tan olishning konseptual asoslari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy maqsadi ishlab chiqarish xarajatlarini jumladan, tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratishlari darkor. Chunki buning natijasida ular o'z foydalarini ko'paytirishga oqibat natijada foydalilik darajasini oshirishga erishadilar. Mahsulot ishlab chiqarishda tovar-moddiy zaxira qiymatliklarning salmog'i muhim ahamiyat kasb etadi. Ularsiz ayrim hollarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklanadi ayrim hollarda esa umuman mumkin emas.

Tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari yoki tannarxlarini pasayadi. Buning natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning sof foydalari ortadi. Shuning bilan birgalikda tovar-moddiy zaxiralardan o'rindoshlik bilan foydalanish

oqibatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatlari yaxshilanadi, xizmat qilish muddatlari esa ko'payadi.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi, tannarxning pasayishi, foyda va rentabellining oshishi, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moddiy resurslar bilan belgilangan assortimenti va sifati bo'yicha ta'minlanishiga bog'liq.

SHuning uchun sanoat xo'jalik yurituvchi sub'ektlari o'z ishlab chiqarishini bir me'yorda samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida uzoq muddatga mo'ljallangan biznes rejalariga asoslangan holda tovar-moddiy zaxiralar bilan ta'minlashga alohida e'tibor beradilar. Chunki hozirgi paytda ayrim tovar-moddiy zaxiralarning chetdan olib kelinishi yoki o'z vaqtida olib kelinmaganligi sababli sanoat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining ishlab chiqarish faoliyati turib qolmoqda.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tovar-moddiy zaxiralar bilan o'z vaqtida, zaruriy miqdorlarda, belgilangan sifatda hamda bir ma'romda ta'minlanishi, ulardan rasional foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun har tamonlama ta'sir etadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rivojlanishi, taraqqiy etishi hamda iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishi oqibat natijada mustaqil Respublikamizning iqtisodiyotini barqarorlashishiga zamin yaratadi va xalqimiz turmush darajasining yanada yuksalishiga har tomonlama o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi o'z navbatida tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish ko'lamining ham kengayishiga olib keladi. SHuning uchun tovar-moddiy zaxiralardan tejab tergab foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralardan to'liq va samarali foydalanishni ta'minlash uchun hozirgi davrda zamonaviy yangi texnikalardan to'g'ri foydalanish, shuningdek, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkorlik bilan tatbiq etishni taqazo etadi. Chunki ular yordamida tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarishga sarf qilinishi, tejalishi ta'minlanadi. Shuning bilan birgalikda ishlab chiqarishning turlicha shakllarini asosiy e'tiborni nodavlat mulkchiligiga asoslangan xo'jalik

yurituvchi sub'ektlarni barpo etish va rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiqdir.

Sababi, ularda mulkka egalik qilish xissiyoti doimo yuqori darajada bo'ladi. Darhaqiqat nodavlat mulkchiligiga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy qiymatliklar ularning mulki hisoblanadi. Undan imkoniyat doirasida samarali foydalanishga katta e'tibor beriladi.

Tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanishni tahlil etishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt, birlashmalarning zaruriy tovar-moddiy zaxiralari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash;
- tovar-moddiy zaxiralarni xo'jalik yurituvchi sub'ektga etkazib berish hajmini, kompleksliligini, sifatligini, sortligini hamda ma'romiyligining darajasini belgilash;
- tovar-moddiy zaxiralarni etkazib berish borasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlararo tuziladigan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilganligini aniqlash;
- moddiy texnika ta'minoti belgilangan rejasining xato'iga yaroqligini tekshirish;
- transport-tayyorlov xarajatlarini hisoblash;
- tovar-moddiy zaxirallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni mahsulot xajmiga uning tannarxiga ta'sirini miqdor jihatdan hisoblash;
- xom - ashyo, yoqilgi va tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanilmagan ichki imkoniyatlarini aniqlash va boshqalar.

SHu bilan birga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar aktiv sifatida tan olinishiga alohida e'tibor qaratish darkor. Chunki tovar-moddiy zaxiralar xo'jalikning aktivlarini asosiy qismini tashkil qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar 4-son BHMSga⁶ muvofiq quyidagi hollarda aktiv sifatida tan olinadi:

⁶ Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти. 4-сон. "Товар-моддий захиралар". 2-банди.

- tashkilotga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo'lsa;

- aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lsa;

- ularga bo'lgan mulk huquqi o'tsa.

Tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan mulk huquqi, ular bilan bog'liq xatarlar va mukofotlarning o'tish payti uning shartlari kelishiladigan etkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi asosida belgilanadi.

Ular bo'yicha mulk huquqi tashkilotga tegishli bo'lmagan, biroq shartnoma shartlariga muvofiq uning ixtiyorida bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar balansdan tashqari hisobvaraqlarda shartnomada nazarda tutilgan baho bo'yicha aks ettiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar quyidagilar natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya balansiga kiritilishi lozim:

- etkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo'yicha xarid qilish;

- muassislardan tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi;

- muassislar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mulkini uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanayotganda ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan tashkilotning ta'sis ulushini qaytarilishidan kelib tushishi;

- tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha);

- ayirboshlash;

- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazish;

- ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash;

- ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish;

- tashkilotning o'zida tayorlanishi;

- hisobot davri oxirida tugallanmagan va tugallanmagan ishlab chiqarish tarzida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish;

- tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

Tovar-moddiy zaxiralar quyidagi ikki qiymat: hisobot davri oxiridagi tannarxidan (xarid qiymati yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki sotishning sof qiymatidan eng kam qiymat bo'yicha baholanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobida tegishli tarzda tan olingan tannarxi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va mazkur BHMS bilan belgilangan hollardan tashqari o'zgartirilmaydi.

4-son BHMSga muvofiq "Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar"⁷.

Sotishning sof qiymati - tovar-moddiy zaxiralarning maqsadiga ko'ra ishlatiladigan holatga keltirish va sotish bo'yicha baholangan xarajatlar chegirilgan holda joriy qiymati.

Joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun etarli bo'lgan summa.

Shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida tovar-moddiy zaxiralarni yaratish, sotib olish hamda tashkib keltirish bilan bog'liq xarajatlar ham yuzaga keladi. Ularga bevosita xarajatlar va bilvosita xarajatlarni kiritish mumkindir. Bevosita xarajatlar - alohida turdagi tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning birligi tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari. Bilvosita xarajatlar - bir necha turdagi tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari, ular muayyan tovar-moddiy zaxiralar birliklari tannarxiga bevosita kiritilmaydigan, buning oqibatida ular xarajat

⁷ Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти. 4-сон. "Товар-моддий захиралар". 1-банди 1-хат боши.

ob'ektlari va ularning birliklari tannarxi o'rtasida hisob-kitob yo'li bilan taqsimlanadi;

Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotlarda quyidagilar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

- mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idish va idishbob materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zaxiralari;

- detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi;

- tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi - sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

- boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishdan sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar ob'ektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulk (mutlaq) huquq va boshqalar) keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda, ular ham tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobining birligi tashkilot tomonidan mustaqil ravishda, ushbu zaxiralar to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta'minlash maqsadida belgilanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning

xususiyatlari, ularni xarid qilish va ulardan foydalanish tartibiga bog'liq holda tovar-moddiy zaxiralarning birligi nomenklatura raqami, turkum, bir turdagi guruh va hokazo bo'lishi mumkin.

1.3. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning nazariy asoslari

Ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Amalda ular tovar-moddiy zaxiralar deb ataladi. Asosiy vositalardan farq qilib, materiallarning xar bir turi bo'yicha normativ miqdori korxona tomonidan mustaqil belgilanadi.

Materiallar - ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadi.

Xo'jalik yuritishning yangi tizimi sharoitida moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurashish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Materiallar hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- materiallar harakati bilan bog'lik bo'lgan o'zgarishlarini o'z vaqtida tegishli hujjatlarda rasmiylashtirish;
- moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib boriladi;
- materiallarning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va ularni sarflash me'yoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish;
- mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyasiya ob'ektlarida to'g'ri taqsimlash;
- ichki resurslarni ishga solish maqsadida ortiqcha va foydalanilmayotgan TMZlarni aniqlash va sotish.

Materiallar, yangi mehnat mahsulotini yaratishdagi roliga ko'ra, ikkiga bo'linadi:

- a) xom ashyo va asosiy materiallar;
- b) yordamchi materiallar.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini asosiy TMZlar tashkil qiladi. Masalan, mashinasozlikda – metall, mebel ishlab chiqarishda - yog'och, gazlama

ishlab chiqarishda – paxta va boshqalar. Qazib chiqaruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari xom ashyo deb ataladi. Masalan, neft, ruda, paxta, qand lavlagi va boshqalar. Boshqa korxonalardan olinadigan mashina va agregatlarning to'g'ri detallari va boshqalar yarim tayyor mahsulotlar deb ataladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda TMZlarni hisobga olish uchun 1000-«Materiallar» aktiv schyotidan foydalaniladi. Bu schyot o'z navbatida bir necha schyotlarga bo'linadi:

1010-Xom ashyo va materiallar;

1020-Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar;

1030-YOqilg'i;

1040-Ehtiyot qismlar;

1050-Qurilish materiallari;

1060-Idish va idishbop materiallar;


1070-Qayta ishlashga berilgan TMZlar;

1080-Inventar va xo'jalik jihozlari;

1090-Boshqa materiallar.

Buxgalteriya hisobining milliy standarti 4-son «Tovar-moddiy zaxiralari» nomli standartiga ko'ra, ularni baholash belgilangan tannarxdan yoki sotishning sof qiymatidan eng kam baho bo'yicha baholanadi. Materiallarni tannarxi barcha sotib olish xarajatlarini va ularni manzilga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan transport tayyorlov xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Materiallarni sotib olish xarajatlari sotib olish qiymatini, import bojlari va yig'imlarini, tovarni sertifikatsiya-lashtirish xarajatlarini, ta'minot, vositachi tashkilotlarga to'langan komission to'lovlarni, soliqlarni, xizmat va zaxiralarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari savdo foizlari yoki chegirmalari va shunga o'xshash boshqa chegirmalar TMZlarni sotib olish xarajatlarini belgilashda amalga oshiriladi.



2-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarning asosiy guruhlari.

Joriy hisobga olish tizimini qo'llashda yil davomida TMZ ning har birining batafsil hisobi yuritilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy mavjudligi inventarizatsiya natijalari bo'yicha aniqlanadi. Sotilgan TMZning tannarxini inventarizatsiya yakunlanmaguncha aniqlab bo'lmaydi, chunki sotilgan TMZ tannarxini hisoblash quyidagi formula bilan topiladi:

$$Z_K + Z_R = Z_T + Z_{KI} = Z_R, \text{ bunda}$$

Z_K - hisobot davri boshiga bo'lgan TMZ qoldig'i

Z_R - kelib tushgan TMZ

Z_T - sotishga tayyor TMZ tannarxi

Z_{KI} - hisobot davri oxiriga bo'lgan TMZ tannarxi

Z_R - sotilgan TMZ tannarxi

Joriy hisobga olish tizimini qo'llaganda, tovar-moddiy zaxiralarning balans schyotlaridagi qoldig'i inventarizatsiya yakunlanmaguncha boshlang'ich darajada

qoladi. TMZ ning butun harakati xarajatlarning vaqtinchalik schyotlarida aks ettiriladi. Masalan, metariallarning xaridi «Tovar-moddiy zaxiralar» balans schyotida emas, balki 1510 – «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotining debetida aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida TMZ qoldiqlarining inventarizasiyasi natijalari bo'yicha TMZ ni hisobga olish balans schyotlarining debetlanishi yoki kreditlanishi, «Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha tuzatishlar» yoki «Materiallarni xarid qilish bo'yicha xarajatlar» schyotlari bilan o'zaro aloqada tuzatuvchi yozuvlar amalga oshiriladi.⁸

Butun hisobot davri davomida sotilgan TMZ ning tannarxi «Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha tuzatishlar» schyotining qoldig'iga tuzatilgan, «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotining debeti bo'yicha yig'ilib boriladi. TMZni doimiy hisobga olish tizimini qo'llaganda TMZning balans schyotlarida tovar-moddiy zaxiralar qabul qilinishi va chiqib ketishi batafsil aks ettiriladi. TMZ ni joriy hisobga olishda qo'llaniladigan xarajatlarning vaqtinchalik schyotlarida bu hol qo'llanilmaydi. Natijada butun hisobot davrida TMZning ma'lum turlarining mavjudligi va sotilgan zaxiralarning tannarxi ma'lum bo'ladi.

Sotilgan TMZ ning tannarxi sotilish bo'yicha «Sotilgan mahsulot (tovar)ning tannarxi» schyotida aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobidagi uzluksiz va davriy tizimlarning farqi shuki, uzluksiz hisob tizimiga muvofiq «Tovarlar» schyotida doimo yangi xaridlar, sotuvlar va tovarlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa muomalalar aks ettiriladi. Zaxiralarning davriy hisob tizimi yuritilganda ushbu schyot tamoyil bo'yicha ma'lumotlar hisobot davrining oxirida mavjud tovar-moddiy zaxiralarning inventarizasiyasi o'tkazilmaguncha, boshlang'ich holida qoladi. Natijada davriy hisob tizimi sharoitida ishlatiladigan «Tovarlarning xaridi», «Sotib olingan tovarlarning qaytarib berilishi va narxining pasaytirilishi», «Xaridorlardan chegirmalar» va «Tovar-larni sotib olish bo'yicha transport xarajatlari» kabi schyotlar zaxiralarni uzluksiz hisobga olish tizimi sharoitida ishlatilmaydi.

⁸ Ибрагимов А., Очилов И., Қўзиев И., Ризаев Н., Молиявий ва бошқарув ҳисоби./Ўқув қўлланма. -Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. 179-180 бетлар.

TMZlarni hisobga olishning buxgalterlik uslubini tovar-moddiy boyliklar soni uncha ko'p bo'lmagan korxonalarda qo'llash tavsiya qilinadi. Bunday uslub qo'llanilganida xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasida subschyotlar razryadida (1010) ishlab chiqarish zaxiralarining har bir turi uchun son-miqdorli hisob-kitob varaqalari ochiladi. Buxgalter ushbu varaqalarda ombordan kelib tushgan dastlabki asoslovchi hujjatlar (kirim orderlari, TMZ larni qabul qilib olish dalolatnomalari, yuk haqi talabnomalari va boshqalar)ning ma'lumotlari asosida moddiy boyliklar xarajati (saldo, kirim, chiqim) ni aks ettiradi. SHunday qilib, ombordagi hisob-kitob varaqalaridagi axborot keyinchalik moddiy javobgar shaxslarga doir tovar-moddiy boyliklarning sintetik schyoti (1010) ning har biri uchun alohida ochiladigan analitik (son-miqdorli) aylanish vedomostlariga ko'chiriladi. Materiallarning ombor (M-12 shakli) va buxgalterlik hisob-kitobi (son-miqdorli) varaqalarida operatsiyalarni aks ettirishning to'g'riligi va to'liqligini tekshirish maqsadida har oyda moddiy boyliklarning har bir turi bo'yicha ularning natural ko'rsatkichlarini quyidagi pozisiyalar yuzasidan taqqoslash o'tkaziladi: Oy boshidan saldo oydagi kirim va chiqim bo'yicha aylanishlar oy oxiridagi saldo. Bu ko'rsatkichlar ombor va buxgalteriya varaqlarda bir xil bo'lishi lozim, chunki kirim va chiqim bo'yicha barcha operatsiyalar bir xildagi dastlabki hujjatlar ma'lumotlari asosida ro'yxatga olinadi. Agar nomuvofiqlik aniqlansa, analitik hisob-kitobda yo'l qo'yilgan xatoni topish va bartaraf qilish kerak. SHuningdek, aylanish vedomostlarining yakuniy ma'lumotlari ham bosh daftarga yoki nazorat jurnalida qayd qilingan 1000 schyotdagi aylanishlar va qoldiqlar bilan taqqoslab chiqilishi kerak: ular ham bir xilda bo'lishi lozim. Tafovutlar bo'lishi sintetik hisob-kitobda xatoga yo'l qo'yilganidan dalolat beradi. Materiallarni hisobga olishning saldo uslubi.

Materiallarni hisobga olishning operativ-buxgalterlik (saldo) usulining mohiyati shundaki, xo'jalik yurituvchi sub'ekt omborida TMZ larni omborda M-12 shakli bo'yicha hisobga olish varaqalari, buxgalteriyada esa ombordagi TMZ lar qoldig'ini hisobga olish bo'yicha M-14 shakldagi (saldo daftari) vedomost yuritiladi.

Bu daftarda har oyda faqat moddiy boyliklar qoldiqlari aks ettirib boriladi, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni ombor mudiri yoki buxgalteriya xizmati xodimi ombordagi hisob-kitob varaqalaridan o'tkazib turadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasida son-miqdorli hisob-kitob varaqalari va aylanish vedomostlari yurgizilmaydi. Saldo daftari xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasida saqlanadi.

II-Bob. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish va hisobga olishning uslubiy asoslari

2.1. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlash usullari

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar samarali faoliyat olib bormoqdalar. Buning natijasida ularning rentabelligik darajasi yil sayin o'sib bormoqda. Bunday samaradorlikka erishishda albatta ishlab chiqarish zaxiralari unumli foydalanish, ular bilan bog'liq xarajatlari to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishilmoqda. Bunday munosabatlar natijasida tannarx masalasi alohida o'rin tutadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tovar-moddiy zaxiralarni ikki xil usulda yaratishlari mumkin:

- mol etkazib berivchilardan xarid qilish;
- o'zi tomonidan ishlab chiqarish.

Tovar-moddiy zaxiralar korxonaning buxgalteriya balansida tannarxi bo'yicha kiritiladi, u xarid qiymati (etkazib beruvchiga to'lanadigan summalar) va ularni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- a) import bojlari va yig'imlarni;
- b) tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va yig'imlar summolari (agar ular qoplamasa);
- v) tovar-moddiy zaxiralar ular orqali xarid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;
- g) tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlari;
- d) tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularning joriy joylashish yoki foydalanish joyiga etkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdagi transport bilan ularning joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun

tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralarni tashishda xatarlarni sug'artalarish bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;

e) tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Savdo diskontlari, chegirmalar va boshqa shu kabi chegiruvlar tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish xarajatlarini belgilash chog'ida amalga oshiriladi.

Xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar (akkreditiv ochish xarajatlari, o'tkazmalar uchun bank komissiyasi, tovar-moddiy zaxiralarni chet el valyutasiga xarid qilish chog'ida valyutani konvertasiyalash bo'yicha komissiya va boshqa bank xizmatlari), tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlar hamda aktivlarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar tovar-moddiy zaxiralarning tannarxiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinadi.

Muddatidan oldin to'lash natijasida yoki katta hajmda xarid qilish natijasida yoxud taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra olingan pul chegirmalari xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini kamaytirmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar qarz kapitali hisobiga xarid qilinganda yoki tayyorlanganda kredit (qarz)dan foydalanganlik uchun foizlar ko'rinishidagi xarajatlar uning hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxiga kiritilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bo'yicha xarajatlar ularning yuzaga kelishini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Agar shartnoma shartlarida xarid qilanadigan tovar-moddiy zaxiralar uchun to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, unda mazkur tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobiga to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilmasdan sotiladigan qiymat bo'yicha qabul qilinadi. Bunda tovar-moddiy zaxiralarning to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash

taqdim etilmasdan sotiladigan qiymati bilan sotib olinayotgan tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha umumiy to'lov summasi o'rtasidagi farq to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash davri mobaynida joriy to'lovning kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha to'lovlarning umumiy summasidagi solishtirma og'irligiga bog'liq holda moliyaviy xarajatlar (foizlar bo'yicha xarajatlar) sifatida tan olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralarga qo'shimcha ishlov berish va ularni foydalanishga yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlar bilan bog'liq xarajatlar tashkilotning mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan navlarga ajratish, o'rab-joylash bo'yicha va ularni tovar ko'rinishiga keltirish bo'yicha xarajatlarini o'z ichiga oladi. Yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ularning ham tashkilot - xaridorning o'z kuchlari bilan, ham chet tashkilotlar bilan bajarilishidan qat'i nazar tovar-moddiy zaxiralarning tannarxiga kiritiladi.

Korxonaning transport-tayyorlov xarajatlari quyidagi usullardan biri bo'yicha hisobga qabul qilinadi yoki xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga kiritiladi:

a) transport-tayyorlov xarajatlarini tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) kiritish (shartnoma narxiga qo'shish, ustav kapitaliga kiritilgan badalning pul bahosiga qo'shish, tekinga olingan va h.k joriy qiymatiga qo'shish).

Transport-tayyorlov xarajatlarini tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) kiritish usulini ko'p bo'lmagan nomenklaturadagi tovar-moddiy zaxiralarga ega bo'lgan tashkilotlarda, shuningdek tovar-moddiy zaxiralarning alohida turlari va guruhlarining qiymati katta ahamiyatga ega bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiq;

b) etkazib beruvchining hisob-kitob hujjatlariga binoan transport-tayyorlov xarajatlarini alohida sintetik "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" hisobvarag'iga olib borib, keyinchalik ularni "Materiallar" elementi bo'yicha tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga yoki ishlatilishiga qarab ishlab chiqarish xarajatlariga va (yoki) davr xarajatlariga kiritish.

Transport-tayyorlov xarajatlarining summasi alohida yig'iladi va tovar-moddiy zaxiralarning tegishli turlari (ushbu transport-tayyorlov xarajatlari tegishli bo'lgan partiyalari, guruhlari) o'rtasida taqsimlanadi.

Alohida yig'iladigan transport-tayyorlov xarajatlari summasi tashkilotning hisob siyosatida belgilangan davrga bog'liq holda davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig'i summasi va ushbu davrda chiqib ketgan (ishlatilgan, sotilgan, tekinga berilgan va h.k.) tovar-moddiy zaxiralar summasi o'rtasida taqsimlanadi. Chiqib ketgan tovar-moddiy zaxiralarga tegishli bo'lgan transport-tayyorlov xarajatlari summasi transport-tayyorlov xarajatlarinig o'rtacha foizi bilan chiqib ketgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatining ko'paytmasi sifatida aniqlanib, ushbu tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishi ular bilan bog'lanishda aks ettirilgan hisobning xuddi o'sha hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Transport-tayyorlov xarajatlarining o'rtacha foizi davr boshidagi transport-tayyorlov xarajatlari qoldig'i va davr ichida qilingan transport-tayyorlov xarajatlari summalarini davr boshidagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig'i va davr ichida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar summasiga bo'lish bilan aniqlanadi.

Transport-tayyorlov xarajatlarini hisobga olishning qo'llaniladigan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan (tayyorlanadigan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi tan olinadi. Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxiga ularni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

O'zi tomonidan ishlab chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bo'yicha guruhlariga ajratiladi:

a) ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

b) ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari, shu jumladan ular bo'yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summalari;

v) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

g) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tovar-moddiy zaxiralar (mahsulot (ishlar, xizmatlar)) tannarxini aniqlash usullari ularning turi, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish siklining davomiyligi, tovar-moddiy zaxiralar nomentklaturasiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi 4-sonli BHMSga muvofiq mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo'lib: oddiy, me'yoriy, buyurtma, bosqichli usullari hisoblanadi, savdo tashkilotlarida esa xarajatlarni inventar baholash usuli ham qo'llaniladi.⁹

Xo'jalik yurituvchisub'ektlarda tannarxni aniqlashning oddiy usuli bir turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaradigan va yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'lmagan tashkilotlarda qo'llaniladi. Ushbu usul qo'llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Tannarxni aniqlashning me'yoriy usuli xom ashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yornomalari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me'yornomalar vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turiladi va zarur hollarda joriy shart-sharoitlarga muvofiq qaytadan ko'rib chiqiladi.

⁹ ЎЗР АВ томонидан 486-сон билан рўйхатга олинган 4-сонли "Товар-моддий захиралар" БХМС.-Т.: 28.08.1998 й. 30-банди.

Tannarxni aniqlashning buyurtma usuli ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot (ish, xizmat) (bir xildagi mahsulotlar guruhi)ga doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikatsiyalanadigan va hisobga olinadigan yakka tartibdagi va mayda turkumli ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llanadi. Buyurtmaning ob'ekti bo'lib mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruksiyalarga ega bo'lgan agregatlari, uzellariga berilishi mumkin.

Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi.

Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi) tugallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo'yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini tashkil qiladi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) turkumidan iborat bo'lsa, mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish ularning konstruksiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalarning haqiqiy tannarxi bo'yicha baholanadi.

Tannarxni aniqlashning bosqichli usuli boshlang'ich xom ashyo va meteriallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan tashkilotlarda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi..

Bosqichli usuli tashkilotning tarmoqqa mansubligiga bog'liq holda ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.

Yarim tayyor mahsulotli variantda har bir bosqich bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti

(ishlar, xizmatlar)ning tannarxi va mazkur bosqich bo'yicha xarajatlardan iborat bo'ladi. Oxirgi bo'lim mahsulotining tannarxi barcha tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hamdir.

YArim tayyor mahsulotsiz variantda faqat oxirgi bosqich mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxigina hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo'yicha alohida hisobga olinadi. Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi.

2.2. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil qilish amaliyoti

“Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil qilish amaldagi buxgalteriya hisobi me'yoriy hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralarini hisobini aks ettirish uchun 21-BHMSda “Tovar-moddiy zaxiralar” nomli 2-bo'lim keltirilgan bo'lib, unda TMZlarning harakati aks ettiriladi, ya'ni TMZlarni kirim qilish va chiqiminiamalga oshirish. Albatta buxgalteriya hisobida TMZlarni hisobini yuritish uchun boshlang'ich hujjatlar yuritilishi kerak. Bularsiz TMZlarni hisobini tashkil qilib bo'lmaydi. Xo'jalik yurituvchisub'ektlarda TMZlarni asosini materiallar tashkil etadi.

Materiallarni qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida joylashtirilishi va ombordan berilishi muomalalarini rasmiylashtirish uchun bir xillashtirilgan idoralararo dastlabki hujjatlar ko'zda tutiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- "Keladigan yuklarni ro'yxatga olish jurnali" M-1 haqli yuklarni temir yo'llar, suv pristanlari, transport ekspeditsiyasi idoralaridan olish va ularni xo'jalik yurituvchi sub'ekt omboriga kirim qilish bilan bog'liq transport, tovarga oid va boshqa hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun qo'llaniladi.

Jurnalga transport va yuk hujjatlari, kirim orderlari, TMZ ni qabul qilish dalolatnomalaridagi ma'lumotlar asosida yozib boriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt omboriga TMZ larni qabul qilishiga qarab jurnalga kirim orderlar (yoki qabul qilib olish aktlari)ning tartib raqamlari va kelib tushish sanalari yozib boriladi yoki schyoti to'langanligi haqida axtaruv summasi bilan bog'liq so'rovnomalar to'g'risida belgi qo'yiladi.

- "Ishonchnoma" M-2 shakli lavozimdor shaxsning TMZ larni olish chog'ida xo'jalik yurituvchi sub'ektning huquqini rasmiylashtirish uchun xizmat qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasi ishonchnoma oluvchiga bir nusxada berib, undan tilxat oladi.

- "Ishonchnoma" M-2a shaklini ishonchnoma bo'yicha TMZ lar doimiy tusda olinadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlatadi. Bunday ishonchnomalarning berilishi oldindan nomerlangan va tikib qo'yiladigan berilgan ishonchnomalarni hisobga olish jurnalida ro'yxatdan o'tkaziladi.

- "Berilgan ishonchnomalarni ro'yxatga olish jurnali" M-3 shaklida beriladigan ishonchnomalar va ular olingani to'g'risidagi tilxatlar ro'yxatdan o'tkaziladi. M-2 shakldagi ishonchnomadan foydalanishda olinganlik va berilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar ishonchnoma koreshogida qayd qilinadi. Bu holda jurnalda berilgan ishonchnomalar hisobga olib borilmaydi.

"Kirim-orderi" M-4 shaklida xo'jalik yurituvchi sub'ekt omboriga mol etkazib beruvchilardan yoki qayta ishlovdan kelib tushgan TMZlar hisobi olib boriladi. TMZlar omborga kelib tushgan kuni moddiy javobgar shaxs bir nusxada kirim orderini tuzadi. Kirim orderlarining blankalari moddiy javobgar shaxslarga oldindan nomerlangan holda topshiriladi.

"Materiallarni qabul qilish dalolatnomasi" M-7 shakli shunday TMZ larni qabul qilish uchun rasmiylashtiriladiki, ularga doir ma'lumotlarda mol etkazib beruvchi ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlar bilan miqdor borasida tafovutlar mavjud bo'ladi, shuningdek, u hujjatsiz kelib tushgan TMZ larni qabul qilishda ham tuziladi. Qabul hay'ati moddiy javobgar shaxs va mol etkazib beruvchining vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzadi va ularni xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tasdiqlaydi. TMZ lar qabul qilib olgan hujjatlar ilova qilingan dalolatnomalarning bittasi xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasiga moddiy

qiymatlarni hisobga olish uchun, boshqasi mahsulot etkazib beruvchiga topshiriladi.

TMZ larning xo'jalik yurituvchi sub'ektga o'z vaqtida keltirilishini ta'minot bo'limi nazorat qiladi. Bu bo'lim xodimlari mol etkazib beruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishini tekshirib, ularga TMZ kamomadi va sifati bo'yicha shikoyat va da'volar qo'yish, xo'jalik yurituvchi sub'ektga o'z vaqtida etib kelmagan yuklarni qidirib topish vazifalarini bajaradilar.

Mol etkazib beruvchilar xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan TMZ larni ta'minot bo'limi ekspeditori etkazib beradi. Mol etkazib beruvchi yoki transport tashkilotlaridan u qabul qilinganda ta'minotchi idish va plomba, tamg'a, TMZ lar sifatini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida kamomad yoki yuklar sifati buzilganligi aniqlansa, mol etkazib beruvchi yoki transport tashkilotiga da'vo qo'yish huquqini beradigan tijorat dalolatnomasi tuziladi.

Mol etkazib beruvchi yoki transport tashkiloti omboridan TMZ larni olish uchun ta'minotchiga buxgalteriya tomonidan 15 kun muddati bilan ishonchnoma beriladi. Ishonchnoma olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar ro'yxati xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan imzolanadi. Ishonchnoma yozish uchun asos bo'lib shartnomalar, naryad, to'lovnoma, buyurtmanoma yoki mol etkazib beruvchining boshqa hujjatlari xizmat qiladi.

Beriladigan ishonchnomalar, avval, ishonchnomalarni ro'yxatga olish daftarida qayd etiladi. Bu daftar varaqlari oldindan raqamlanib, tikilib, so'rg'ich bilan muhrlanadi. Daftarning oxirgi betida bosh buxgalter imzosi bilan quyidagi yozuv qayd etiladi: «Bu daftarda hisobvaraqlar raqamlangan va tikib chiqilgan». Varaqlar soni harf (so'z) bilan yozilishi kerak.

Ishonchnoma olgan xodim TMZ lar olingandan keyingi birinchi kundan qoldirmasdan unga yuklatilgan vazifani bajarishi hamda olingan TMZ larni omborga topshirishi shart. Ishlatilmagan ishonchnomalar belgilangan muddati o'tib ketgandan keyingi kunda buxgalteriyaga qaytariladi.

Muddati o'tib ketgan ishonchnomalar bo'yicha hisobot bermagan shaxslarga yangi ishonchnomalar berish man etiladi.

TMZ larni ombor mudiri yoki omborchi qabul qiladi. Omborga qabul qilish vaqtida omborchi keltirgan TMZ lar soni, turi, sifatini mol etkazib beruvchi tomonidan yuborilgan hujjatlar (hisobvaraq-faktura, to'lov talabnomasi, spesifikasiya, tovar transporti, yuk xatlari) bilan solishtirib, to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirib ko'radi. Keltirilgan TMZ lar mol etkazib beruvchining hujjatlariga mos kelsa, omborchi kirim orderi tuzadi. Kirim operatsiyalari soni kam bo'lganda mol etkazib beruvchining hujjatiga muhr qo'yishga ruxsat etiladi.

Bunday boshlang'ich hujjatlar asosida TMZlar buxgalteriya hisobining tegishli schyotlarida hisobga olinadi. "Qiziltepa un zavodi" OAJda TMZlar hisobini tashkil qilish amaldagi 21-BHMga muvofiq quyidagi tartibda aks ettiriladi (1-jadval).

1-jadval

“Qiziltepa un zavodi” OAJda TMZlar harakatini buxgalteriya hisobida hisobga olish tartibi¹⁰

№	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Summa, ming so'mda	Schyotlarning bog'lanishi	
			Debet	Kredit
1	Mol etkazib beruvchilardan materiallar olindi	6000.0	1010-1090	6010
2	Ta'sischilardan ularning ulushi hisobidan turli xil materiallarning kelib tushishi	9000.0	1010-1090	4610
3	Ajratilgan bo'linmalar, sho''ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan materiallarning kelib tushishi	5600.0	1010-1090	6110, 6120
4	Boshqa shaxslardan materiallarning tekinga olinishi	2500.0	1010-1090	8530
5	Transport-tayyorlov xarajatlarining materiallar tannarxiga kiritilishi	500.0	1010-1090	1510
6	O'zida ishlab chiqarilgan materiallarning kirim qilinishi	6400.0	1010-1090	2310
7	Asosiy ishlab chiqarishga materiallarning chiqarilishi	4560.0	2010	1010-1090
8	Ma'muriy ehtiyojlar uchun materiallarning berilishi	650.0	9420	1010-1090
9	CHetga chiqib ketayotgan	320.0	9220	1010-


¹⁰ “Қизилтепа ун заводи” ОАЖда маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

	materiallarning qiymatini hisobdan chiqarish			1090
10	Tabiiy ofat natijasida yo'qotilgan materiallarning hisobdan chiqari-lishi	150.0	9720	1010-1090
10	Inventarizasiya natijasida materiallarning kamomadi aniqlandi	50.0	5910	1010-1090

2.3. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil qilishning uslubiy asoslarini takomillashtirish yo’nalishlar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati yanada rivojlanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning foyda olish darajasini maksimal darajaga ko’tarish hamda xarajatlar miqdorini minimal darajaga keltirish ularning birinchi galdagi vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda xo’jalik yurituvchi sub’ektlar, shu qatori “Qiziltepa un zavodi” OAJda xarajatlar tarkibini asosini tashkil qiluvchi tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanish hamda ularning hisobini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqazo qiladi.

Buning natijasida TMZlarni birinchi navbatda ishlab chiqarishda ishtirokiga qarab turkumlashga alohida e’tibor qaratish darkor. Buni biz quyidagi 3-rasm ko’rinishida keltirib o’tishimiz mumkin.



3-rasm. TMZlarni foydalanilishiga qarab tasniflanishi¹¹.

“Qiziltepa un zavodi” OAJda aylanma mablag'larga taalluqli bo'lgan moddiy qiymatliklar, ya'ni TMZlar hisobining uslubiy asoslarini takomillashtirishda albatta, ularni tayyorlash, sotib olish vaqtida omborga kirim qilish jarayonida ular bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni TMZlar tarkibiga kiritishda hisobni to'g'ri tashkil qilish darkor.

“Qiziltepa un zavodi” OAJda TMZlar hisobini tashkil qilishda to'g'ridan-to'g'ri TMZlarni hisobga oluvchi schyotlarga olib bormoqda, ya'ni:

1) “Qiziltepa un zavodi” OAJ mol etkazib beruvchi “Soxibnazar” fermer xo'jaligidan 16680 tonna bug'doy xarid qildi. 1 tonna bug'doyning xarid qiymati 350 000 so'm

D-t 1010

K-t 6010

2) Bug'doyni xarid qilish bilan bog'liq tashib keltirish xarajatlari 26 000 so'm

D-t 1010

K-t 6990

3) Xaydovchi N.Kamolovga bir partiya bog'doy tashib keltirgani uchun 15 000 so'm ish haqi hisobladi

D-t 1010

K-t 6710

SHubu keltirib o'tilgan hisob-kitoblar natijasida “Qiziltepa un zavodi” OAJ uchun bir tonnabug'doyning tannarxi qancha tushganligini aniq hisoblash imkoniyati mavjud emas.

SHuning uchun “Qiziltepa un zavodi” OAJda TMZlar hisobini to'g'ri tashkil qilish maqsadida, ularni tayyorlash va sotib olish to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" schyotidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Qiziltepa un zavodi” OAJda 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" schyotining debetiga moddiy qiymatliklarning hisob bahosi olib boriladi. Bunda u

¹¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

yoki bu qiymatliklar qaerdan kelib tushganligi va korxonada materiallarni tayyorlash va olib kelish xarajatlarining xususiyatiga ko'ra 6010 "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" va shu kabi boshqa schyotlar bilan bog'langan holda yozuvlar amalga oshiriladi. "Qiziltepa un zavodi" OAJda 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" schyotining kreditiga xarid qilingan qiymatliklarni xarid qilish (tayyorlash)ning haqiqiy tannarxi bo'yicha hisoblangan qiymati, moddiy qiymatliklarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda olib boriladi.

Moddiy qiymatliklarning haqiqiy tannarxi va hisob bahosi bo'yicha qiymati orasidagi farq summasi 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" schyotidan 1610 "Materiallar qiymatidagi farqlar" schyotiga hisobdan chiqariladi.

Oy oxirida 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" schyotidagi qoldiq tayyorlangan va xarid qilingan shuningdek, yo'ldagi yoki mol etkazib beruvchilarning omborlaridan (ushbu qiymatliklarni omborga kirim qilinmasdan) olib kelinmagan materiallarning mavjudligini ko'rsatadi.

YUqoridagi xo'jalik muomalalarini 1510 schyoti orqali hisob-kitoblarni tashkil qilish tartibini ko'rib chiqamiz.

1) "Qiziltepa un zavodi" OAJ mol etkazib beruvchi "Soxibnazar" fermer xo'jaligidan 16680 tonna bug'doy xarid qildi. 1 tonna bug'doyning xarid qiymati 350 000 so'm

D-t 1510

K-t 6010

2) Bug'doyni xarid qilish bilan bog'liq tashib keltirish xarajatlari 26 000 so'm

D-t 1510

K-t 6990

3) Xaydovchi N.Kamolovga bir partiya bog'doy tashib keltirgani uchun 15 000 so'm ish haqi hisobladi

D-t 1510

K-t 6710

4) “Qiziltepa un zavodi” OAJ mol etkazib beruvchilardan xarid qilib olingan bug’doy omborga kirim qilindi

D-t 1010

K-t 1510

Bunday hisob tizimi olib borilganda “Qiziltepa un zavodi” OAJ tomonidan xirid qilib olingan TMZlarning tannarxi aniq va to’g’ri aks ettiriladi.

Xar bir xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishni tashkil etish uslublari turlichadir. Buxgalterlik va saldo uslublari shularning eng ko’p tarqalganlaridandir. Hisob-kitobni qo’lda yuritish sharoitida saldo uslubi birmuncha ilg’or uslub hisoblanadi. Bunday uslub buxgalterlik uslubiga nisbatan qator afzalliklarga ega, ana shu afzalliklar mazkur uslubning ko’proq ommalashuvini ta’minlagan.

Moddiy boyliklarning analitik joriy hisob-kitobini haqiqiy tannarx bo’yicha baholashda yoki hisob-kitob baholari bo’yicha baholashda yurgizish mumkin. Materiallar nomlarining soni nisbatan uncha katta bo’lmagan kichik xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda TMZ lar nomlarining soni nisbatan uncha katta bo’lmagan kichik xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda TMZ larni ishlab chiqarish (foydalanish) ehtiyojlari uchun berishda ularni, yaxshisi, shu oydagi haqiqiy tannarx bo’yicha baholagan ma’qul. Agar aylanishda ko’p nomdagi TMZ lar mavjud bo’lsa, unda tahliliy hisob-kitobni har bir nomdagi TMZ ning hisob-kitob narxlari bo’yicha baholashda yuritish maqsadga muvofiq bo’ladi.¹²

Hisob-kitob baholaridan foydalanish TMZ lar harakatiga doir hujjatlar bilan ishlash vaqtini jiddiy kamaytiradi, chunki bunda har bir turdagi TMZ uchun uning har oydagi o’rtacha haqiqiy tannarxini aniqlab o’tirishga zarurat bo’lmaydi.

Ishlab chiqarish zaxiralarining turlariga ko’ra hisob-kitobi haqiqiy tannarxga ko’ra yuritiladigan xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda bunday zaxiralarni ishlab chiqarishda foydalanishga, ta’mirlash ehtiyojlariga va boshqa maqsadlarga berib yuborishda sarflangan moddiy resurslar o’rtacha tannarx bo’yicha baholanadi.

¹² Ибрагимов А., Очилов И., Қўзиёв И., Ризаев Н., Молиявий ва бошқарув ҳисоби./Ўқув қўлланма. -Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. 188 бет.

“Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar moddiy zaxiralarni baholash tartibi¹³

Ko'rsatkichlar	Miqdori, tonna	Bir birlikning bahosi, sumda	Summa, ming sumda
1. Materiallarning qoldig'i 01.06.12 y.	400	250000	100000
Materiallarning kelib tushishi			
birinchi partiya	60	250000	15000
ikkinchi partiya	50	300000	15000
uchinchi partiya	30	350000	10500
Oy bo'yicha jami	140		40500
Oy mobaynida materiallarning sarflanishi:			
a) FIFO usuli bo'yicha			
birinchi partiya	100	250000	25000
ikkinchi partiya	50	300000	15000
uchinchi partiya	10	350000	3500
Oy bo'yicha jami	160		4350
b) LIFO usuli bo'yicha			
birinchi partiya	30	35000	10500
ikkinchi partiya	50	30000	15000
uchinchi partiya	80	2500	20000
Oy bo'yicha jami	160		4550
Materiallarning qoldig'i 01.07.12yilga			
a) FIFO usuli bo'yicha			
b) LIFO usuli bo'yicha	20	35000	7000
	20	25000	5000

Bunday o'rtacha tannarx oy boshidagi TMZ lar qoldig'ining tannarxi va ularning hisobot oyida tayyorlangan sonining tannarxidan kelib chiqib, aniqlanadi. O'rtacha arifmetik tannarxni belgilash ko'p mehnat talab qiladi, chunki u shu turdagi TMZ larni so'nggi marta etkazib berish to'g'risidagi ma'lumotlarni TMZ larni hisobga olishning son-miqdorli varaqalariga oldindan yozib chiqishni talab qiladi.

Materiallarni sotish operatsiyalarini hisobga olishda yuklarni jo'natish yoki haq to'langan schyotlarga qarab sotish tartibini aniqlash borasida buxgalteriya hisobining milliy standartlari (1-BHMS son) "Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot" ga bog'liq bo'ladi.

Agar hisob siyosatida TMZlar yuklab jo'natilgandan keyin ularni sotilgan deb hisoblash qabul qilingan bo'lsa, u holda, TMZ lar xaridorlarga jo'natib turilishiga qarab, ular sotilish narxlarida sotilgan TMZ lar sifatida aks ettiriladi.

¹³ Қизилтепа ун заводи” ОАЖ маълумотлари асосида муаллифнинг ҳисоб-китоблари

Mabodo, hisob siyosatida pul kassaga yoki hisob-kitob schyotiga kelib tushgandan keyin TMZ larni sotilgan deb hisoblash qabul qilingan bo'lsa, u holda TMZ larni xaridlarga jo'natish chog'ida, ular 9010 schyot debetiga (1010 schet kreditiga) yoziladi va unda to TMZ lar haqi to'langunga qadar turadi (5010, 5110 schyotlar debeti 9010 schet krediti). Haq to'langan paytidan e'tiboran ular 9010 schyot kreditdan o'chirilib, 9010 schyot debetiga yoziladi. 9010 schyotda aniqlangan TMZ larni sotishdan olingan moliyaviy natija 9900 - "YAkuniy moliyaviy natija", schetiga QQS ni (20%) alohida pozitsiyasi yozib qo'yishi kerak. Bu soliq hisoblab chiqilishi (9010 schyot debeti, 6410 schyot krediti) va byudjetga o'tkazilishi (6410 schyot debeti, 5110 schyot krediti) lozim.

III-Bob. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralar auditini tashkil qilish

3.1. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralarni auditining axborot manbalari

“Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning maqsadi ularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatilishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. SHuningdek hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini va tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat.¹⁴ Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzilmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o'tkazish va tavakkalchilik (risk)larni baholash orqali erishiladi. Zaxiralarni tekshirish, ular hajmi katta bo'lgan sub'ektlarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniyligini tekshirishda boshqa audit ob'ektlaridagi kabi, dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zaxiralari» (150-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish (160-satr)», «Tayyor mahsulot» (170-satr), «Tovarlar» (180-satr) moddalari, Bosh daftar, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari orasidagi tenglikni aniqlash zarur (3-jadval).

TMZlarni ishlab chiqarish xarajatlariga olib borish va ularning baholarini tekshirish, ishlab chiqarishga sarflash me'yorlari va boshqalarni tekshirish zarur. Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga da'vo qo'zg'atishning o'z vaqtidaligi va to'g'riligi hamda yo'ldagi (sub'ektga etib kelmagan) materiallar qoldig'ining haqqoniyligini ham tekshirish kerak.

3-jadval

“Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralari audit ob'ektlari

¹⁴ Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги қонуни. –Т.: 1996.

Ko'rsatkichlar nomi	Moliyaviy hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlar	
	1-shakl	4-shakl
	Satr raqami	Satr raqami
1	2	3
Tovar-moddiy zaxiralari (satr. 150+160+170+180), jumladan:	140	
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160	
Tayyor mahsulot (2800)	170	
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	
Material, ish, xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'lanadigan pul mablag'lari		020

“Qiziltepa un zavodi” OAJda TMZlar tekshiruv jarayonida auditor qo'yidagilarni aniqlashi lozim:

- zaxiralarning haqiqatda mavjudligi;
- zaxiralar bilan bog'liq barcha muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va to'g'ri aks ettirilganligi;
- barcha zaxiralar sub'ekt mulki ekanligi, ya'ni ularga mulkiy huquq mavjudligi, qarz sifatida aks ettirilgan summalar esa majburiyat ekanligi;
- zaxiralarni va ular bilan bog'liq majburiyatlarni baholashning to'g'riligi;
- tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tamoyillari to'g'ri tanlanganligi va ko'llanilishining to'g'riligi.

Tovar-moddiy zaxiralarni tekshirishda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalaniladi:

- TMZlarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash va harakati bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar;
- hisob siyosati to'g'risidagi buyruq;
- tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq muomalalarni rasmiylashtirishga doir dastlabki hujjatlar;
- tashkiliy-huquqiy hujjatlar va materiallar;
- tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishga doir buxgalteriya hisobi registrlari va buxgalteriya hisobotlari;

- moddiy javobgar shaxslar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida tuzilgan shartnoma.

Auditor tekshiruv mobaynida tekshiruvning ushbu sohasi bo'yicha tanlangan hisob yuritish usullari va uslublari to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti talablariga muvofiq sub'ektning hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyrug'ida tovar-TMZlarni hisobga olishning uslubiy jihatlari, xususan quyidagilar haqidagi axborotlar aks ettirilishi lozim:

- tovar-TMZlarni sotib olish (tayyorlash) ni hisobga olish;
- tovar-TMZlarni ularning turlari bo'yicha hisobdan chiqarish natijasida baholash usullari.

“Qiziltepa un zavodi” OAJ rahbari, u yoki bu hisob yuritish prinsipi moliyaviy natijaga ta'sir qilishini bilsada, hisob siyosatiga kiritilgan ma'lumotlarning zarurligiga ko'p hollarda etarlicha ahamiyat bermaydi. Mana shuning oqibatida har xil qoidabuzarliklar kelib chiqadi. Ulardan eng ko'p tarqalgani tanlangan hisob yuritish usullariga yoki ularni qo'llashda izchillikka rioya qilinmasligi hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishda ko'llaniladigan dastlabki hujjatlar shakllari “Qiziltepa un zavodi” OAJdagi TMZlarning turlari va guruhlariga bog'liq. Ko'llaniladigan dastlabki hujjatlarda barcha zarur rekvizitlar bo'lishi shart. Bunday dastlabki hujjatlarga quyidagilar kiradi: TMZlarni olish uchun ishonchnomalar, kirim orderlari, materiallar, inventar va xo'jalik eihozlarini kiringa olish va hisobdan chiqarish dalolatnomalari, limit-zabor kartalari, talabnoma-yukxatilar, tovar-transport yukxatilari, ombor hisobi kartochkalari yoki daftari.

Tashkiliy-huquqiy hujjatlar va boshqa ma'lumot manbalariga qo'yidagilar kiradi:

- “Qiziltepa un zavodi” OAJ rahbarining buyrug'i (yoki farmoyishi), direktor kengashi majlisining bayonnomalari, ta'sischilar va boshqa hay'at yig'ilishi qarorlari. Agar sub'ekt ustav kapitalining miqdorini shakllantirish yoki o'zgartirish

mobaynida ulush sifatida materiallar, inventar va xo'jalik jihozlari, tovarlar qo'shilgan bo'lsa, shuningdek agar dividendlar yoki daromadlar TMZlar bilan to'lansa ushbu hujjatlarni o'rganish auditor uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi;

- OAJda o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari o'tgan yillardagi hisobotlari;

- tovarlar, materiallar, xom-ashyolar va hokazolarni etkazib berish shartnomalari;

Auditorning sub'ekt xodimlari bilan rahbariyat tarkibidagi, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimidagi o'zgarishlar to'g'risidagi suhbatlari tekshiruv uchun zarur qo'shimcha axborotlar berishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning natijalari ishchi hujjatlarda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.¹⁵

Tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq:

- mazkur tekshiruv uchastkasining yo'nalishlari bo'yicha hisob siyosatining qoidalarini o'rganish;

- tovar-moddiy zaxiralarga doir ichki nazorat tizimining ishonchlilik darajasini baholash. Buning uchun ombor xo'jaligi va omborxonalarining holatini tekshirib chiqish;

- moddiy javobgar shaxslar tomonidan tovar hisobotlarini tuzish va belgilangan muddatlarda buxgalteriyaga topshirilishini o'rganish;

- tovar-TMZlarning hisobot sanasiga tarkibini tahlil qilish;

- tanlab inventarizasiya qilinadigan ob'ektlar va pozisiyalarini aniqlash;

- tovar-moddiy zaxiralar harakatini tahlil qilish;

- tovar-moddiy zaxiralarni baholashning to'g'riligi;

- tovar-moddiy zaxiralar sintetik va analitik hisobining tashkil etilishi hamda holatini tekshirish.

Ishlab chiqarishda TMZ larning sarflanishi ustidan nazorat olib borish - bu bir xil mahsulot ishlab chiqarishda sarflangan TMZ larning haqiqiy sonini ularning me'yorida ko'rsatilgan soni bilan taqsimlashdir. Materiallarning sarflanishi

¹⁵ М.Тулаходжаева ва бошқалар. Аудит. –Т.: ТДИУ, 2008 й.

ustidan turli usullar yordamida nazorat olib boriladi: hujjatlashtirish, inventar, partiya bo'yicha bichish va boshqalar.

Birinchi usul yordamida TMZ ning bir turini ikkinchi tur bilan almashtirilganda vujudga keladigan farq hisobga olinib, talabnoma bilan rasmiylashtiriladi.

“Qiziltepa un zavodi” OAJda ushbu hujjatda TMZ ning me'yor bo'yicha sarflash soni va almashtirilgan TMZning sarflanishi xususida ma'lumotlar ko'rsatilib, ularni taqqoslash natijasida farqi aniqlanadi. Materiallar sarflanishini nazorat qilishdagi hujjatlashtirish usulining mohiyati shundan iboratki, bunda TMZning sarflanish me'yoriga qaraganda ortiqcha xarajat yoki iqtisod qilinishiga yo'l qo'yish TMZlar ishlab chiqarishda sarflanishidan avval aniqlanadi.

Nazorat qilishning partiya bichish usulida sarflash natijasi TMZ ning xar bir partiyasi bo'yicha aniqlanadi. Buning uchun bichish varaqasi yuritiladi. Unda ishlab chiqarish topshirigini bajarish uchun berilgan TMZning haqiqatdan sarflanganligi ko'rsatiladi. Har bir bichish varaqasi bo'yicha TMZ sarflash natijasi aniqlanadi.

“Qiziltepa un zavodi” OAJda inventar usuli bo'yicha TMZ sarflash natijasi hisobot oyi oxirida chiqarilmay, balki qolgan TMZlarni inventarizasiyalash yo'li bilan aniqlanadi.

3.2. “Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy zaxiralarni auditi xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo'nalishlari

“Qiziltepa un zavodi” OAJda tovar-moddiy qiymatlikdarni qabul qilish, saqlash va berishga aloqador xodimlarning moddiy javobgarliklarini tashkil etishga maxsus e'tibor qaratiladi. Xodimlarning huquq va burchlari, ularning ish tartibi, qiymatliklarni qabul qilish va berish, hamda ularni hujjatlashtirish tartibi, omborlarda natural o'lchovlarda hisobni yuritish, buxgalteriyaga hisobotlarni taqdim etish muddatlari ko'rsatilgan standartlar yoki yo'riqnomalarni ishlab

chiqish va moddiy javobgar shaxslarga taqdim qilish TMZlarni saqlashni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

“Qiziltepa un zavodi” OAJning tovar-moddiy zaxiralarni saqlash joylarini ko'zdan kechirish mobaynida moddiy javobgar shaxslardagi hujjatlar bo'yicha ular qiymatliklarni qabul qilish va berishni rasmiylashtirish, hamda omborxona hisobi daftari yoki kartochkalariga yozishni o'z vaqtida amalga oshirilayotganligi tekshiriladi.¹⁶

Hisobga olinmagan oshiqcha materiallar va tayyor mahsulotlar quyidagi yo'llar bilan vujudga kelishi mumkin:

TMZlarni tayyorlash mobaynida xom-ashyolarni almashtirish;

TMZlarni topshiruvchilarning og'irlikdan urib qolishi, namligini oshirib ko'rsatish va ularning navlarini pasaytirish;

TMZlarni xaridorlarga jo'natish mobaynida o'lchovdan, hisobdan va tarozidan urib qolishlar;

TMZlarni yuklash, tashish, tushirish yoki saqlash mobaynida yo'qolgan deb asossiz dalolatnomalar tuzish va shunga o'xshash.

Tovar-moddiy zaxiralarining to'liq kirim qilinishini tekshirish mobaynida auditor mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarning shakllari va shartlarini, tanlangan baholash usulini, sotib olingan qiymatliklar bo'yicha QQS ni qoplash tartibini hisobga olishi zarur.

Tovar-moddiy zaxiralarining tushumi va kirim qilinishi mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar va kuzatib boruvchi hujjatlar (tovar-transport yuk xatlar, schyot-fakturalar, qodoqlash yorliqlari, sifat guvohnomasi, qabul kvitansiyasi va boshqalar) asosida tekshiriladi.

Xususan, “Qiziltepa un zavodi” OAJda har bir mol etkazib beruvchi bo'yicha shartnomada materiallarning etkazib berilish muddatlari va assortimenti ko'rsatilayotganligi, hamda haqiqatda olingan materiallarning assortimenti, olinish sanasi ko'rsatilgan holda qabul qilinganligi tekshiriladi. Operativ hisobda keltirilgan axborotlarning ishonchliligini aniqlash uchun auditor ularni

¹⁶ Р.Д. Дўсмуратов. Аудит асослари. –Т.: “Ўз миллий энциклопедияси” нашриёти 2003 й.

buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslaydi. Toshniyoz-boli ota" xususiy savdo korxonasiga kelayotgan yuklarni hisobga olish jurnali va mol etkazib berish shartnomalarini hisobga olish kartochkalaridagi yozuvlar bo'yicha auditor tekshirilayotgan davr ichida qanday mol etkazib berishlar amalga oshirilganligini aniqlashi mumkin.

"Qiziltepa un zavodi" OAJda agar TMZlar jismoniy shaxslardan yoki yuridik shaxs huquqiga ega bo'lmagan tadbirkorlardan naqd pulga sotib olingan bo'lsa, auditor xarid dalolatnomalarining mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligiga e'tibor qaratadi. Xarid dalolatnomasida quyidagi majburiy rekvizitlar bo'lishi lozim: sotuvchining pasport ma'lumotlari, TMZlarning nomi, miqdori va qiymati.

Olingan TMZlarni rasmiylashtiradigan ichki hujjatlarga yukni qabul qilib oluvchi shtampasi bosilgan mol etkazib beruvchilarning kuzatib boruvchi hujjatlari, kirim dalolatnomalari, kirim orderlari va yukni qabul qilish tartibiga ko'ra ayrim boshqa hujjatlar kiradi.

"Qiziltepa un zavodi" OAJ sotib olingan TMZlarning to'g'ri baholanishi va to'liq kirim qilinishini tekshirishni boshlashda auditor TMZlarni hisobga oladigan qaydnomalarda aks ettirilgan jami summalarning boshqa hisob registrarlari ma'lumotlariga mosligini aniqlaydi.

6010 «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga tulanadigan schyotlar» bo'yicha sintetik hisob registrarlari ma'lumotlari, hamda omborxonalarning kirim hujjatlari bo'yicha auditor olingan materiallarning miqdorini va yuklarni qabul qilishning to'g'ri rasmiylashtirilishini aniqlaydi. Buning uchun mol etkazib beruvchilarning puli to'langan schyotlari va boshqa to'lov hujjatlarini kirim orderlari, qabul qilish dalolatnomalari, hamda omborxona hisobi kartochkalaridagi yozuvlar bilan taqqoslaydi.¹⁷


TMZlarning to'liq kirim qilinganligini tekshirishda auditor mol etkazib beruvchilarning hisobga olinmagan schyotlarini aniqlash maqsadida, mol etkazib beruvchilardan kreditor qarzlarning haqqoniyligiga e'tibor qaratadi. Buning uchun u buxgalteriya hisobi registrarlariidagi yozuvlarni taqdim qilingan schyotlar,

¹⁷ Р.Д. Дўсмуратов. Аудит асослари. –Т.: “Ўзб. миллий энциклопедияси” нашриёти 2003 й.

shartnomalar va mol etkazib beruvchilarga to'langanlik to'g'risidagi pul hujjatlari ma'lumotlari bilan solishtiradi.¹⁸

“Qiziltepa un zavodi” OAJ tovar-moddiy zaxiralarining kirimiga doir muomalalarni hujjatlar bo'yicha tekshirish mobaynida qabul qilishning miqdor va sifat qoidalariga rioya qilinishi; qabul qilish dalolatnomalari, tijorat dalolatnomalari, qabul qilishda aniqlangan tafovut dalolatnomalarining to'g'ri rasmiylashtirilishi; moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari va isbotlovchi hujjatlar reestrlarining buxgalteriyaga o'z vaqtida taqdim qilinishi aniqlanadi. Tafovutlar aniqlanganida hujjatlarni qarama-qarshi tekshiruvdan o'tkazish zarur.

“Qiziltepa un zavodi” OAJda TMZlarning to'liq kirim qilinganligini tekshirishda ichki hujjatlar mol etkazib beruvchilarning kuzatib boruvchi hujjatlari bilan solishtiriladi. Auditor olingan TMZlar sifati va miqdoridagi tafovutlarning dalolatnomalar bilan to'g'ri rasmiylashtirilganligi va mol etkazib beruvchilarga yoki transport tashkilotlariga o'z vaqtida da'vo qo'zg'atilganligini o'rganiladi. Ayrim hollarda bunday tafovutlar TMZlarni o'zlashtirish va kamomadni yashirish maqsadida qalbaki dalolatnomalarni rasmiylashtirish oqibatida yuzaga kelishi mumkin.



4-rasm. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari¹⁹.

¹⁸ М.Тулаходжаева ва бошқалар. Аудит. –Т.: ТДИУ, 2008 й.

¹⁹ муаллиф томонидан тузилган.

Aksionerlik jamiyati bo'yicha zarur hollarda auditor TMZlarni kirim qilish uchun asos bo'lgan hujjatlarni ularning mol etkazib beruvchilarda saqlanayotgan nusxalari bilan solishtirib, qarama-qarshi tekshiruv ham o'tkaziladi.

Tovar-moddiy zaxiralari auditorlik tekshiruvidan o'tkazish mobaynida auditor olinayotgan TMZlar bo'yicha QQS ning hisobda aks ettirilishini ham tekshiradi.

Mol etkazib beruvchining hisob-kitob hujjatlarida alohida qator bilan ajratib ko'rsatilib, xaridor sub'ektga to'lov uchun taqdim qilinadigan QQS summasi 4410 - «Soliqlar va yig'imlar bo'yicha avans to'lovlar» schyotining debeti va 6010 - «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyotining kreditida aks ettiriladi. To'langan QQS summalari ishlab chiqarish zaxiralarinig sotib olish qiymatiga kiritilmaydi ya'ni 1010-1090 yoki 1510 schyotlar debetiga olib borilmaydi, agar korxona umumqbul qilingan soliq tizimida bo'lsa.

4410 «Soliqlar va yig'imlar bo'yicha avans to'lovlar» schyotining istalgan hisobot sanasiga debet qoldig'i sotib olingan, lekin hali puli to'lanmagan TMZlarga tegishli bo'lgan QQS summasini bildiradi. Ushbu summa balans aktivining II bo'limida tegishli modda bo'yicha ajratib ko'rsatiladi.

4-jadval

Moliyaviy hisobotning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha jiddiylilik darajasini hisoblash jadvali²⁰

(namuna)

Asosiy ko'rsatkichlar	Asosiy ko'rsatkich qiymati	%	Jiddiylilik darajasini summasi, m.s.
Mahsulot(ish, xizmat)larni sotishdan olingan tushum (2-shakl, 010 satr)		5%	
Sotilgan mahsulot(ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi (2-shakl, 020-satr)		3%	
Jami davr xarajatlari (2-shakl, 040-satr)		3%	
Korxonaning xususiy kapitali (1-shakl, 460-satr)		10%	
Balansning umumiy summasi (1-shakl aktividagi 380-satr yoki passivdagi 700-satr)		5%	
Tugallanmagan ishlab chiqarish (1-shakl, 150-satr)		3%	
Taqsimlanmagan foyda (1-shakl, 430-satr)		2%	

²⁰ Муаллиф томонидан тузилган.

Aksionerlik jamiyatlarida auditorlik tekshiruvchini tashkil qilishda eng muhim ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni olish va ularga nisbatan qo'llaniladigan foizlarni tavsiya sifatida belgilash mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar qu-yidagi jadvalga tushirilib (2-grafa), qabul qilingan jiddiylik darajasi (%) ga muvofiq (3-grafa) Auditor jadvalning 4 grafasida chiqarilgan miqdor ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqishi kerak. U boshqalaridan katta va (yoki) kichik tomonga keskin farq qiladigan miqdor-larni chiqarib tashlashi mumkin. Qolgan ko'rsatkichlarga asosan o'rtacha miqdor hisoblab chiqarilib, uni keyinchalik ishlashga qulay bo'lishi uchun yaxlitlash lozim. Ammo yaxlitlanganidan so'ng uning miqdori o'rtacha miqdordan u yoki bu tomonga o'zgarishi 20% dan oshmasligi kerak. Ushbu ko'rsatkich jiddiylik darajasini tavsiflaydigan yagona ko'rsatkich bo'lib, auditor ulardan o'z ish faoliyatida asos sifatida foydalanishi mumkin.

Amaliyotda aksionerlik jamiyatlari TMZlarni kirim qilmasdan turib, ya'ni tovar-moddiy zaxiralarni hisobda aks ettirish talablariga rioya qilmasdan hisobdan chiqarish hollari ko'p tarqalgan. Bu QQS bo'yicha soliq bilan bog'liq noxush oqibatlarga olib keladi. Misol, auditor "Qiziltepa un zavodi" OAJ tomonidan - "Aslonbobo" fermer xo'jaligidan bug'doy sotib olinganligi va uning qiymati mol etkazib beruvchi tomonidan taqdim qilingan schyot-fakturaga muvofiq, 4000000 so'm, QQS esa 1000000 so'mni tashkil etganligini aniqladi. Ushbu muomala mijoz-sub'ekt buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirilgan:

Sotib olingan bug'doy qiymatga:

Debet 1010- «Xom ashyo materiallar» - bug'doy qiymati 4000000 so'm,

Kredit 6010-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar»- bug'doy qiymati 4000000 so'm;

QQS summasiga

Debet 4410-«Soliqlar va yig'imlar bo'yicha avans to'lovlar» schyoti- QQS summasi 1000000 so'm,

Kredit 6010 - «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» QQS summasi 1000000 so'm,

Ushbu vaziyatda auditor tomonidan xom ashyo qoldig'ining buzib ko'rsatilishi hamda ishlab chiqarish xarajatlari oshirib ko'rsatilganligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMS da tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish xarajatlarining taxminiy tarkibi keltirilgan. Ularga, xususan, materiallarni tayyorlash va tashib keltirish, import bojxona to'lovlari va yig'implari, mahsulotlarni sertifikatsiyalash xarajatlari, ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'langan komission to'lovlar, soliqlar, hamda tayyorlov-transport, xizmat ko'rsatish va zaxiralarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari tekshiruv bo'yicha hisobotni tayyorlaydi.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida aksionerlik jamiyatlari ishlab chikarish faoliyatini kengaytirish hamda ularni rivojlantirish bugungi kunning dalzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bunda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlarning sifati yuqori va xaridorgir bo'lishi ularning moliyaviy xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishlariga olib keladi. Albatta bunday yuqori samaradorlikka erishida tovar-moddiy zaxiralarning ulushi ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, "Qiziltepa un zavodi" OAJda bir tomondan tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan ehtiyojni oshirishi, ikkinchi tomondan ushbu zaxiralarning qiymatini bozor talablarini inobatga olib, mahsulot tannarxining qanchaga tushishini hisobga olishni taqozo etadi.

Shu boisdan, "Qiziltepa un zavodi" OAJda tovar-moddiy zaxiralarning ulushi qanday salmoqni tashkil etishi, shuningdek, ularning tarkibida esa, mol etkazib beruvchilardan sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarning hissasini ham alohida hisobga olishni talab qiladi. Chunki ushbu zaxiralarni hisobga olishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish muhim ahamiyat egadir.

Shundan kelib chiqib, mazkur bitiruv malakaviy ishda "Qiziltepa un zavodi" OAJda tovar-moddiy zaxiralar hisobining nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, tahlil qilish hamda ularning auditini o'tkazish masalalarini atroflicha tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi.

- tovar-moddiy zaxiralardan foydalanishning iqtisodiy mazmuni, mohiyati chuqur o'rganildi va ularning turkumlanishi hamda baholash usullari o'rganildi;

- "Qiziltepa un zavodi" OAJda tovar-moddiy zaxiralarning sarflashda baholash usulining «FIFO» usulini qo'llash tavsiya etildi. Ushbu usulni qo'llashda ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining shakllanishiga ob'ektiv yondoshish mumkin va o'sha davrda kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning bir birlik bahosiga asoslangan holda navbatma-navbat hisobdan chiqarilishiga erishiladi;

- "Qiziltepa un zavodi" OAJda tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobi va auditining nazariy va uslubiy asoslari har tomonlama o'rganildi hamda

hisob registrari va shakllaridan foydalanishda, sub'ektning hajmidan kelib chiqib, hisob yuritish tizimi, ya'ni hisob siyosatini ishlab chiqish tavsiya etildi. Ushbu hisob siyosatida buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarini tuzishda eng samarali bo'lgan usullardan birini tanlab olish taklif etildi;

- "Qiziltepa un zavodi" OAJda mol etkazib beruvchilardan sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari bugungi kunda amal qilinayotgan qonuniy va me'yoriy hujjatlar talablariga mos holda tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi. Ularni sotib olish bilan bog'liq dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirishda foydalaniladigan hisob registrari va shakllarini soddalashtirish lozimligi, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralari tannarxini aniq bo'lishligi uchun 1510 schyotdidan foydalanish tavsiya etildi;

- "Qiziltepa un zavodi" OAJda sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda, axborot ta'minot manbalarining shakllanishi va ulardan foydalanish hamda tekshiruv o'tkazishda eng qulay bo'lgan usullardan biri qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi;

- "Qiziltepa un zavodi" OAJning moliyaviy barqarorligiga baxo berish maqsadida, iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi va tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanish jarayoni o'rganildi hamda ularni ishlatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar asoslab berildi, shuningdek, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shunday qilib, "Qiziltepa un zavodi" OAJda tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish, yuritish va ularning auditini o'tkazish bo'yicha bildirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar "Qiziltepa un zavodi" OAJning buxgalteriya hisobi bo'limida foydalanilsa o'ylaymizki hisob tizimini takomillashtirish imkoniyatini yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr. –T.: Adolat, 2008. – 692 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonuni. –T.: 2008 y.
4. Prezidenti Islom Karimovning “Mistahkam oila yili” Davlat dasturi. 2012 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 23 martdagi PQ-1306-sonli “2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida”gi Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 “O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investision dasturi haqida”gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
8. O'z.R. Prezidentining O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori. 22.12.2012 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investision faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida" 288-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida»gi Nizom. 54- qarori. –T.: 1999y.

II. Prezident asarlari

13. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. "Xalq so'zi" gazetasi, 2013 yil 19 yanvar, № 13 (5687).

14. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.

15. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

17. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 176 b.

III. Cohaga oid me'yoriy hujjatlar

18. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. – T.: «Norma» MCHJ, 2006 y. – 352 b.

19. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. BHMS №21. – T.: Norma, 2010 y.

20. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida» nizom. O'Z AV tomonidan 1192-son bilan ro'yxatga olingan –T.: 2002 y.

IV. Asosiy adabiyotlar

21. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi. /Darslik –T.: Iqtisod, 2011. -307 b.

22. Xolbekov R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi./Darslik –T.: CHO'lpon, 2011. -185 b.

23. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. Rossiya . -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.

24. Jo'raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshkaruv hisobi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet.

25. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchet vneshne-ekonomicheskoy deyatelnosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

26. Kasyanova G.YU. Основные средства: бухгалтерский и налоговый учет. Rossiya .-M.: BAK, 2010. – 256 s.

27. Xvostik T.V. Praktikum po buxgalterskomu (finansovomu) uchetu: ucheb. posob. Rossiya . -M.: FORUM, 2010. – 176 s.

28. Klimovich V.P. Основы банковского аудита: ucheb. Rossiya . - M.: FORUM, 2010. – 192 s.

29. Druri K. Upravlencheskiy i proizvodstvennyy uchet: per. s angl. -6-e izd. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – 1423 s.

30. Podolskiy V.I., Savin A.A. Audit: uchebник. Rossiya . -M.: YUrayt, 2010.–605s.

31. Pugachyov V.V. Vnutrenniy audit i kontrol. Organizatsiya vnutrennego audita v usloviyax ekonomicheskogo krizisa: ucheb. Rossiya . -M.: Delo i Servis, 2010. – 224 s.

32. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy (finansovyy, upravlencheskiy) uchet: ucheb. – M.: Prospekt, 2009. – 448 s.

33. SHilenko S.I. i dr. Основы аудита: uchebник. – M.: KNORUS, 2009. – 152 s.

34. SHERemet A.D., Suys V.P., «Audit», M.:«INFRA-M», 2009 -401 str.
35. Sokolova,E.S. Buxgalterskoe delo: uchebnik. - M.: Vysshee obrazovanie, 2008.- 328 s
36. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iqtisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y
37. To'laxo'jaeva M. Ilxomov SH. Audit. O'quv qo'llanma. –T.: 2006 y.
38. Do'stmuratov R.D. Audit asoslari. –T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2003. – 612 b.
39. O'razov K., Voxidov S. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. /Darslik. –T.: ADIB NASHIRIYOTI, 2011. - 488 b.
40. Sotivoldiev A. S. Zamonaviy buxgalteriya xisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y
41. Zamuraeva L.E. Upravlenie zatratami: Uchebnoe posobie. Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, 2005. – 264 s.
42. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. /Darslik -T.: SHarq,2004.-592 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

43. O'zR Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.-T.: “O'qituvchi” NMIU, 2012.- 272 bet.
44. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010.
45. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi

nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2010. – 146 bet.

46. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: "Iqtisodiyot" 2010.

47. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU. Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev. –T.: Iqtisodiyot, 2009. -120 b.

48. Endoviskiy D.A., Ishkova N.A. Uchet sennyy bumag: ucheb. posob. Rossiya.-M.: KNORUS, 2010. – 384 s.

49. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchet vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

50. Medvedev M.YU. Uchetnaya politika organizatsii na 2010 god: prakticheskoe posobie. Rossiya. M.: KNORUS, 2010. – 248 s.

51. Xvostik T.V. Praktikum po buxgalterskomu (finansovomu) uchetu: ucheb. posob. Rossiya . -M.: FORUM, 2010. – 176 s.

52. Kasyanova G.YU. Uchetnaya politika: buxgalterskaya i nalogovaya. Rossiya -M.: ABAK, 2010. – 160 s.

53. Kulikova L.I. Uchetnaya politika organizatsii: novoe reshenie. Rossiya . - M.: Buxgalterskiy uchet, 2010. – 336 s. – 2 ekz.

54. Medvedev M.YU. Uchetnaya politika organizatsii na 2010 god: prakticheskoe posobie. Rossiya. M.: KNORUS, 2010. – 248 s.

55. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.

56. Zonova A.V. i dr. Buxgalterskiy uchët i analiz: ucheb. posob. pod red. A.V. Zonovoy. – M.: Eksmo, 2009. – 512 s.
57. Kamordjanova N.A., Kartashova I.V. Buxgalterskiy finansovyy uchët. 4-e izd., dop. – SPb.: Piter, 2009. – 288 s.
58. Kuter M.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: Uchebnik.- 3-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansy i statistika, 2008.- 592 s.
59. Bрызgalin A.V., Bernik V.R., Golovkin A.A., Demesheva E.V. Nalogovyy uchët i nalogovoy politiki predpriyatiya. – Izu. 2-s.-M.: «Analitika-Press», 2008. –Str.14.
60. Zaxarin V.R. Uchët osnovnykh sredstv i nematerialnykh aktivov: spravochnik buxgaltera: prakt. rukovodstvo.- M.: Eksmo, 2008.- 320 s.
61. Konstantinova E.P. Mejdunarodnyye standarty finansovoy otchetnosti: Ucheb. posob. – M.: «Dashkov i K», 2008. – 288 s.
62. Taking Control of IT Costs (Upravlenie zatratami na informatsionnyye texnologii). Izdatelstvo Financial Times, 2000. – 272 s.
63. Pochinok A. Audit i nalogovoe zakonodatelstvo. // Audit.-2007. №4.
64. Jumaev I. Xarajatlarni boshqarish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, –T., 2009. №6. –B. 33.
65. Ibragimov A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv hisobi. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. –T., 2007. -№2. –B. 15-17.
66. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallarit to'plami. –T.: TDIU 2012 y. – 344 bet.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

67. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnal. –T.: 2010-2013 yillar
68. «Bozor, pul va kredit» jurnal. –T.: 2010-2013 yillar
69. «Soliq va bojxona xabarleri» gazeta. –T.: 2010-2013 yillar

70. O'zbekistonning 2012 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari. –T.: O'zbekiston, 2011.

71. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnal. –T.: 2010-2013 yillar.

VII. Internet saytlari.

72. "Norma" 2013.

73. "Pravo" 2013.